



## CONSTITUTIONAL AND LEGAL GUARANTEES OF THE RIGHTS OF MINOR CHILDREN

**Bekzod Rasulov**

*Associate Professor*

*Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering*

*Samarkand, Uzbekistan*

*E-mail: rasulov.bekzod@samdaqu.edu.uz*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** children's rights, Constitution, legal protection of minors, domestic violence, forced labor, personal integrity, right to family protection.

**Received:** 20.03.25

**Accepted:** 22.03.25

**Published:** 24.03.25

**Abstract:** Protecting the rights and freedoms of minors is one of the main issues of any society. The health and development of society depends on the growth of healthy young people in it. Its regulation by constitutional laws and international legal norms, as well as the strict implementation of the legal mechanism, is the only way to maintain a healthy society.

This article analyzes the constitutional and legal guarantees of the rights of minors, the problems that arise in ensuring them, and presents proposals and considerations for their solution.

## VOYAGA YETMAGAN BOLALAR HUQUQLARINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY KAFOLATLARI

**Bekzod Rasulov**

*dotsent*

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti*

*Samarqand, O'zbekiston*

*E-mail: rasulov.bekzod@samdaqu.edu.uz*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** bola huquqlari, Konstitutsiya, voyaga yetmaganlarning huquqi himoya qilish, oilaviy zo'ravonlik, majburiy mehnat, shaxsiy dahlsizlik, oilaviy himoya huquqi.

**Annotatsiya:** Voyaga yetmagan yoshlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish har qanday jamiyatning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning sog'lom bo'lishi, taraqqiy etishi unda sog'lom yoshlarning yetishib chiqishiga bog'liqdir. Uning konstitutsiyaviy qonunlar va xalqaro huquqi me'yorlar bilan tartibga solinishi

hamda huquqiy mexanizmning qat'iy amal qilishi jamiyatni sog'lom asrashning yagona yo'lidir.

Mazkur maqolada voyaga yetmagan yoshlar huquqlarining konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari, uni ta'minlashda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinib, uning yechimi bo'yicha taklif va mulohazalar bayon qilindi.

## КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ГАРАНТИИ ПРАВ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ ДЕТЕЙ

**Бекзод Расулов**

Доцент

Самарканского государственного архитектурно-строительного университета  
Самарканд, Узбекистан

E-mail: rasulov.bekzod@samdaqu.edu.uz

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** права детей, Конституция, правовая защита несовершеннолетних, насилие в семье, принудительный труд, личная неприкосновенность, право на защиту семьи.

**Аннотация:** Защита прав и свобод несовершеннолетних является одной из ключевых проблем любого общества. Здоровье и развитие общества зависят от роста здоровых молодых людей. Его регулирование конституционными законами и международно-правовыми нормами, а также строгое применение правового механизма — единственный способ сохранения здорового общества.

В данной статье анализируются конституционно-правовые гарантии прав несовершеннолетних, проблемы, возникающие при их обеспечении, а также предлагаются и комментируются пути их решения.

Har bir jamiyat kelajagi uning yosh avlodi huquqlarining himoya qilinishiga bog'liq. Bolalarining huquq va manfaatlarini himoya qilish – bu demokratik davlatning muhim vazifalaridan biri bo'lib, ularning huquqiy maqomi konstitutsiyaviy normalar bilan belgilanadi.

2025-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimiz aholisining 28.1 % (10 564 141 nafar)[1] voyaga yetmagan, ya'ni 18 yoshga to'limgan yoshlar tashkil etadi. Bu yoshda shaxsning ongi, axloqiy va manaviy qiyofasi shakllana boshlaydi. Ayni shu davrda yoshlar ta'sirchan bo'lib, boshqalarning hatti-harakatlariga qiziqish bilan qaraydilar. Mana shu jarayonda ularni huquqiy jihatdan yo'naltirish masalasi o'ta muhimdir. Shu bois ham mamlakatimizda yoshlar huquqlarini himoya qilish masalalariga davlat siyosati darajasida etibor qaratilmoqda. Davlatimizda yoshlar Konstitutsiya va qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, shaxsiy huquq va erkinliklardan to'liq foydalanadilar. Qonunchiligimizga muvofiq yoshlarning qonuniy

huquq va manfaatlari yosh nuqtai nazaridan bevosita yoki bilvosita cheklab qo‘yilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning huquqlari Konstitutsiya va bir qator milliy hamda xalqaro hujjatlar bilan kafolatlangan. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bolalarning huquqiy maqomini aniq belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi barcha ijtimoiy munosabatlar kabi yoshlар huquqlarini ham ustuvor huquqiy qoidalar bilan mustahkamlaydi.

Voyaga yetmaganlarning asosiy huquqlarini shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

#### **1. Ta’lim olish huquqi:**

- Asosiy Qonunimizning 50-moddasida ta’lim olish huquqi mustahkamlanib qo‘yilgan bo‘lib, unga ko‘ra, har kim ta’lim olish huquqiga ega, davlat bepul umumiyo‘ o‘rtta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi.[2]

- 2020 yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunga asosan, maktab ta’limi majburiy hisoblanadi.

#### **2. Sog‘liqni saqlash huquqi:**

- Konstitutsianing 48-moddasida bolalarga bepul tibbiy xizmat ko‘rsatilishi kafolatlangan.
- “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonun voyaga yetmaganlarning tibbiy himoyasini ta’minlaydi.[3]

#### **3. Shaxsiy daxlsizlik va oilaviy himoya:**

- Konstitutsianing 27-moddasi bolalarning shaxsiy hayoti daxlsizligini ta’minlaydi.

- Oila kodeksi bolalar oilada himoyalanishi va hurmat qilinishi kerakligini belgilaydi.

#### **4. Bolalar mehnatini cheklash:**

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta’lim olishiga to‘sinqilik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanishi belgilab qo‘yilgan.[2].

- Mehnat qonunchiligiga ko‘ra, 18 yoshga to‘limgan shaxslarni og‘ir mehnatga jalb qilish ta’qilanganadi.

Konstitutsiya voyaga yetmagan yoshlар huquqlarini va huquqiy kafolatlarni belgilab beradi. Chunki, huquqlarni belgilanishi amalda o‘z ifodasini topishi uchun davlat beradigan huquqiy kafolat muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddada ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majbur ekanligi, davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta’lim olishini,

sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlashi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantirishini belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida esa, farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat‘i nazar, qonun oldida teng ekanligi, bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati ekanligini huquqiy mustahkamlaydi.

Bosh Qomusimizning 79-moddasida “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.”[2] deb belgilashi natijasida davlatning himoya qilish funksiyasi aniq ko’rsatib qo‘yildi. Bu borada mamlakatimizda davlat tashabbusi va davlat-xususiy sherikchilik asosida voyaga yetmagan bolalar uchun barcha madaniy sharoitlarni yaratishga harakat qilinmoqda. Tuman va shahar markazlarida hamda hududlarda IT markazlari, sport komplekslari, o‘quv muassasalari faoliyati keng yo‘lga qo‘yildi. Turli xil bolalarning aqliy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar yaratildi. Umumta’lim maktablarida ta’lim sharoitlari yaxshilandi. Nogiron bolalarni o‘qitish tizimi alohida tartibga solindi. O‘zbekistonda hozirgi vaqtida boshpanasiz bolalar deyarli yo‘q.

Hozirgi vaqtida voyaga yetmagan bolalar huquqlarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha dunyoning saksonga yaqin davlatlarida Bolalar ombudsmani faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu muassasalarning asosiy vazifasi “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya qoidalarini milliy qonunchilikka tatbiq etish, bolaning shaxsi, sha’ni, qadr-qimmati, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasiga jamiyat va davlatni keng jalg etishdan iborat. Prezidentimizning 2021-yil 9-avgustdagи “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon bilan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (OMBUDSMAN) o‘rinbosari – Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimi tugatilib, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) instituti ta’sis etildi.[4] Buning natijasida bola huquqlarini himoya qilish davlat boshqaruvida alohida idora tomonidan muvofiqlashtirib borilmoqda. Voyaga yetmagan bolalarning muammolari Bolalar ombudsmani tomonidan doimiy o‘rganilib, ijro organlariga tegishli topshiriq va ko‘rsatmalar berib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 15-moddasida[5] oilada har qanday masala hal qilinayotganda bola o‘z fikrini ifoda etishga, shuningdek har qanday sud muhokamasi yoki ma’muriy muhokama jarayonida so‘zlashga haqli ekanligi belgilanib, bunda qaror qabul qilishga vakolatli bo‘lgan organlar va mansabdor shaxslar bolaning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal qilishda bolaning fikrini, uning yoshidan qat’iy nazar, ko‘rib chiqishi hamda bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishi to‘g‘risida tahrir qilindi.

Oila kodeksining 68-moddasi qaror qabul qilishga vakolatli bo‘lgan organlar va mansabdor shaxslar bolaning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal qilishda bolaning fikrini, uning yoshidan qat’i nazar, ko‘rib chiqishi hamda bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishi kerakligi to‘g‘risida yangi mazmundagi jumla bilan to‘ldirildi.[6] “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga esa voyaga yetmagan shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari deb nomlangan yangi 241-modda kiritildi.[7]

Bundan tashqari “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi, Fuqarolik Kodeksi, Mehnat Kodeksi va boshqa qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarida yoshlar huquqlari va qonuniy manfaatlari belgilab qo‘yildi.

Davlatimiz tomonidan yoshlarni huquqiy himoyalash, ularni jamiyatimizning yetuk va faol shaxslari etib tarbiyalanishlari borasida bosqichma-bosqich huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlarni shartli ravishda ikki bosqichga ajratishimiz mumkin.

**Birinchi bosqich** – 1991-2000 yillarni o‘z ichiga oladi. Mazkur bosqichda voyaga yetmaganlar va yoshlarni yagona mafkura asosida tarbiyalashga xizmat qiluvchi eski ma’muriy buyruqbozlik tizimi va uning huquqiy asoslari tugatilib, yoshlarni tarbiyalash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning yangi zamonaviy demokratik asoslari yaratildi. Ushbu jarayonlarni amalga oshirishning huquqiy mexanizmi quyidagi qonun hujjatlari orqali mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabr), “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi (1991-yil), “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi (2000-yil), “Ta’lim to‘g‘risida”gi (1997-yil) qonunlari, bir qator kodekslar, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” (1997-yil) va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bundan tashqari BMT tomonidan 1989-yil 20-noyabrdagi qabul qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyani O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 9-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan ratifikatsiya qildi.

Shu bilan bir qatorda Prezidentimizning “Respublika yosh ijodkorlarini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (1992-yil), “O‘zbekistonda ta’lim olayotgan yoshlarni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (1993-yil), “Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida” (1997-yil) va boshqa ko‘plab qaror va farmonlari e’lon qilindi.

**Ikkinci bosqich** – 2001-yildan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichda yoshlар o‘rtasida tarbiyaviy ishlarni ko‘chaytirish, tegishli davlat idoralari, jamoat tashkilotlari hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Yoshlar o‘rtasida huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ularning Konstitutsiya va qonunlarni yaxshi tushunishlari, huquqiy bilim va kunikmalarni yaxshi o‘zlashtirishlari, huquqqa zid hatti-harakatlarning oqibatlarini anglashlari maqsadida me’yoriy-huquqiy baza takomillashtirildi.

Mazkur bosqichda “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi (2008-yil) va boshqa bir qator qonunlari qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni[8] qabul qilindi va ushbu farmonidan kelib chiqib, barcha yoshdagi bolalar, o‘smlar va yoshlар Konstitutsiya va qonunlarni uzlusiz huquqiy ta’lim olish yo‘li bilan o‘zlashtirib bormoqdalar.

Lekin, me’yoriy-huquqiy baza yetarli darajada shakllantirilgan bo‘lsa-da, ayrim huquqiy yechimini topmagan muammolar mavjud. Hozirgi kunda voyaga yetmaganlarning huquqlarini ta’minalashda bir qator muammolar mavjud:

- Voyaga yetmagan bolalarni mehnatga jalb qilish holatlarining mavjudligi;
- Oilaviy zo‘ravonlik holatlarining uchrab turishi;
- Oilaviy kam ta’minalanganlik natijasida ta’lim olishni tashlash holatlari;
- Internetda bolalar huquqlarining buzilishi.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda Xalqaro mehnat tashkilotining talablarini bajargan holda voyaga yetmagan bolalar o‘rtasida mehnatga majburlash holatlarini keskin kamaytirishga erishdi. Ammo bu holat haligacha oilalarning o‘zida uchrab turishini kuzatishimiz mumkin. Ushbu masala Konstitutsiyamizning 44-moddasida mustahkamlanib qo‘ylgan bo‘lsa-da, oilada ro‘y beradigan bunday hodisalarning barchasini nazorat qilish imkoniyati yo‘q.

Jumladan, yoshlар mehnatidan foydalanish masalalarida jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Mehnat qonunchiligidagi voyaga yetmagan yoshlarning mehnat qilish shartlari qat’iy belgilab qo‘yilsa-da, ba’zi mehnat jamoalarida voyaga yetmagan xodimlar katta yoshdagi

xodimlar qatori mehnat qilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, oiladagi mehnat jarayonlari to‘liq huquqiy tartibga solinmagan. Ya’ni, voyaga yetmagan farzandlarning oilaviy xususiy xo‘jalik yuritishdagi mehnat faoliyati huquqiy jihatdan mehnat qonunchiligidagi o‘z aksini topmagan. Shu bilan bir qatorda, ba’zida oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi oilalarda voyaga yetmagan farzandlar asosiy “Yollanma ishchi” bo‘lib qolmoqda. Vaholangki, O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy talbirkorlik to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasida “... Faqat muomalaga layoqatli shaxslar oilaviy korxona ishtirokchilari bo‘lishi mumkin”[9], deb belgilab qo‘yilgan.

Milliy urf-odatlarimizda bolaning ota-onaga itoatkorlik ruhida tarbiyalanishi oilaviy zo‘ravonlik holatlarini latentligini oshiradi. Chunki, bu holatlarda voyaga yetmagan bolalar yoki ota-onalar zo‘ravonlik holati ro‘y berganda oiladagi voqealarni ko‘chaga chiqarishga uyalishadi.

Oxirgi yillarda kambag‘allikni qisqartirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilayotganligiga qaramasdan oilaviy sharoitlari og‘ir, voyaga yetmagan bolalari o‘qishdan ko‘ra non topish uchun ishslashga majbur bo‘lgan xonadonlar mavjud. Ularning farzandlarini o‘qishga jalb etishga mahalla va ta’lim muassasalari harakat qilishsa-da, ayrim holatlarda bu natija bermaydi. Voyaga yetmagan bolaning o‘qishni tanlash imkoniyati juda past darajada bo‘lib qoladi.

Albatta, belgilangan konstitutsiyaviy qoidalar qonunchilik islohotlari natijasida takomillashgan mexanizmni yaratgan deyishimiz mumkin. Konstitutsiya va qonunlarining bola huquqlarini himoya qilish borasida ta’sirchan mexanizmga aylanishi uchun yana quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

birinchidan, qonunchilikda voyaga yetmagan bolalarga nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun jazo choralarini kuchaytirish. Ma’muriy va jinoiy jazolarni kuchaytirish va uning mazmunini ota-onalar, ular o‘rnini bosuvchi shaxslar, mehnat jamoalariga tushuntirish orqali voyaga yetmaganlar oldidagi ularning mas’uliyatini oshirish, javobgarlikning muqarrarligi prinsipini qat’iy qo‘llash lozim bo‘ladi.

ikkinchidan, voyaga yetmaganlarni himoya qilish bo‘yicha huquqiy va ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Bu asosan bolaga mas’ul bo‘lgan tibbiyot xodimi, maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisi yoki maktab o‘qituvchilarining nazoratini kuchaytirish orqali amalga oshiriladi.

uchinchidan, ijtimoiy himoya dasturlarini kengaytirish lozim. Konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan nodavlat notijorat tashkilotlari ijtimoiy faolligi qonun bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, mamlakatimizda asosan davlat tashabbusi bilan tashkil etilgan dasturlar keng joriy etiladi. Agar nodavlat notijorat tashkilotlari mana shunday himoya dasturlarini ishlab chiqib, amalga oshirishda faollik ko‘rsatsa, natijalar bundan ham yaxshiroq bo‘lardi.

to‘rtinchidan, er-xotinning nikohdan ajralishida bolaning huquqlarini yanada ko‘proq inobatga olish lozim. Amaldagi qonunchiligidan bo‘yicha onaning arizasiga ko‘ra nikoh bolaning istalgan yoshida bekor qilinadi. Mana shu masalada nikohni bekor qilishda agar er-xotin o‘rtasida farzand bo‘lsa, bolaning moddiy ta’minoti uchun ajrashayotgan er yoki xotin ham bir martalik ko‘p miqdordagi to‘lovni, ham voyaga yetguncha aliment majburiyatini zimmasiga yuklasa, birinchidan nikohdan ajralishlar soni muayyan darajada kamayishiga, ikkinchidan, bolaning ta’minotsiz qolmasligiga hamda bolani parvarish qilayotgan er yoki xotin bolaning ta’lim olish huquqini to‘la amalga oshirishiga erishishi mumkin bo‘ladi.

Me’yoriy-huquqiy hujjatlarning amal qilishi borasidagi bu kabi kamchiliklar voyaga yetmaganlar va ularning ota-onalarining huquqiy bilim va ko‘nikmalarni chuqur anglamasligida deb bilaman. Chunki yoshlarni huquqiy himoyalashning muhim shartlaridan biri – ularning huquqiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishidir. Huquq va manfaatlarni eng avvalo, huquq sub’ekti anglab yetmog‘i lozim. Zero, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov – “...**Xalqimizning huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi lozim... zero, mustaqillik so‘zining zamirida ham katta, ulug‘ huquqqa ega bo‘lish degan tushuncha yotadi.** Ya’ni, mustaqillik nafaqat o‘zini erkin sezish, o‘z hayotini qurish, balki o‘z hayot-mamotini hal etishda katta huquqqa egalik ham demakdir...” – deb ta’kidlagan edi.[10]

Yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida olib borilayotgan ishlar to‘g‘ri va aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, ayrim ta’lim muassasalarida huquqshunos-pedagog kadrlarning yetishmasligi natijasida yoshlar huquqiy tushunchalarni sust o‘zlashtirmoqda.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini yanada to‘laroq himoyalanishi uchun qo‘yidagilarga e’tibor qaratish lozim deb o‘ylayman:

- Yoshlar huquqlariga oid me’yoriy huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish;
- Yoshlar huquqlariga oid tushunchalarni yanada kengroq targ‘ib qilish. Bu maqsadni amalga oshirish uchun har bir hududda targ‘ibot-tashviqot guruhlarini shakllantirish va bunday guruhlarga huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va huquqshunos-pedagoglarni keng jalb qilish;
- Huquqshunos-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada keng yo‘lga qo‘yish;
- Voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiylar, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining rolini kuchaytirish;
- Voyaga yetmaganlar huquqlarini buzgan shaxslar javobgarligini kuchaytirish;
- Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbazarliklar natijasida yetkazilgan zararlarni ularning o‘zлari mehnat qilib qoplashi tartibini ko‘rib chiqish va shu orqali ularda qonunga hurmat ruhini shakllantirish;

- Huquqbuzaqligi sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarning ota-onalari va ular o‘rnini bosuvchi shaxslarning farzand tarbiyasiga e’tiborsizligi va sustkashlikka yo‘l qo‘yish holatlari bo‘yicha ma’muriy javobgarlik choralarini ko‘chaytirish;
- Voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilishni qonun bilan tartibga solish borasida boshqa davlatlar tajribasini o‘rganish;
- Voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha doimiy ravishda jamoatchilik fikrini o‘rganishni tashkil etish;
- Yoshlar mehnatini qat’iy tartibga solish.

Yuqoridagi kabi huquqiy me’yorlarning muntazam takomillashtirilib borilishi hamda voyaga yetmaganlar va yoshlarning qonun hujjatlari asosida mustahkamlanib berilayotgan bunday imkoniyatlardan yanada to‘laroq foydalanishlari mamlakatimiz taraqqiyoti va ertangi kunining fayzli va farovon bo‘lishini yana bir bor tasdig‘idir. Bugun yoshlarimizning tadbirkor, zamonaviy bilim sohiblari, yirik ixtiro va kafshiyotlar mualliflari, dunyo tan oladigan sportchilar bo‘lib yetishishlari davlatimizning mana shunday yoshlarga oid odilona siyosati va huquqiy mexanizmning insonparvar demokratik ruhini belgilab beradi.

#### **Iqtiboslar/Чноски/References:**

1. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145> (Constitution of the Republic of Uzbekistan)
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-26013> (Law of the Republic of Uzbekistan on Public Health Protection)
4. Prezidentimizning 2021-yil 9-avgustdagи “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-son Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-5570490>. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6275 dated August 9, 2021 "On measures to further improve the system for ensuring guarantees of children's rights")
5. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, <https://www.lex.uz/acts/1297315>. (Law of the Republic of Uzbekistan "On Guarantees of the Rights of the Child")
6. O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. 01.09.1998, <https://lex.uz/docs/-104720> (Family Code of the Republic of Uzbekistan. 01.09.1998)
7. O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi 11.09.2017 yildagi O‘RQ-445-son Qonuni, <https://lex.uz/docs/-3336169>. (Law of the Republic of Uzbekistan “On Appeals of Individuals and Legal Entities” No. O‘RQ-445 dated 11.09.2017)

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. <https://lex.uz/docs/-1275190>. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 4, 2001 “On measures to improve the study of the Constitution of the Republic of Uzbekistan”)

9. O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy talbirkorlik to‘g‘risida”gi qonuni. 26.04.2012 yildagi O‘RQ-327-son. <https://lex.uz/docs/-2004956>. (Law of the Republic of Uzbekistan "On Family Entrepreneurship" No. OPX-327 dated 26.04.2012.)

10. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida. T. 6. - T.: Uzbekiston, 1998. - 29-30-6. (Karimov I. A. On the path to security and sustainable development. T. 6. - T.: Uzbekistan, 1998. - 29-30-6.)